



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

ANVAR OBIDJONNING BOLALAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

ANVAR OBIDJON'S CONTRIBUTION TO CHILDREN'S LITERATURE

Gulsevar TURSUNOVA,

ToshDO'TAU 4-kurs talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DLHZ5853

Annotation. *This article analyzes the elements of children's folklore reflected in the works of Anvar Obidjon. The place of the creator in Uzbek literature and his contribution to children's literature are determined. The relationship between Anvar Obidjon's work and children's folklore is also studied.*

Key words. *Anvar Obidjon, children's literature, children's folklore, humor, metaphor.*

Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri bo'lib, uning ijodi bolalar dunyoqarashini kengaytirish, ularda tabiatga mehr, odob-axloq va ijodiy tasavvurni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. U bolalar uchun yozgan she'r, hikoya, ertak va pyesalari orqali o'zbek bolalar adabiyotiga asarlaridagi soddalik, hajviylik bilan yangi ruh olib kirdi. Anvar Obidjonning bolalar uchun yozgan har bir asari alohida mazmunga, alohida ahamiyatga ega. Uning qisqa, mazmunli she'rlari, ertaklari va pyesalari bolalar dunyoqarashini kengaytirib, odob-axloq, tabiatga mehr va hayotiy quvonchni bolalar qalbiga singdiradi. Uning she'rlari ravonlik, hazil-mutoyiba bilan boyitilgan bo'lib, bolalarning o'qishga qiziqishini oshiradi.

Anvar Obidjonning she'rlarida bolalar ruhiyati, qiziqishlari, sodda xayollari asosiy o'rinda turadi. Masalan, "Suhbat" she'rida bolalar yaxshi ko'radigan g'ozlar orqali tabiatga mehr-muhabbat uyg'otadi. "Birinchi maqto'v", "Fatxillaning kurkasi", "Husanchaning po'pisalari" kabi she'rlarda kichik epizodlar orqali katta tarbiyaviy ma'no beriladi. Shoir yumor va hazilni mohirona ishlatgan: "G'alati maktublar" turkumidagi "Kalishning botinkaga", "Chaynamayshimingning xo'rozqandga" kabi murojaatnomalari bolalar tilidagi so'z yasalmalari, masxaralamalar orqali kulgi uyg'otadi. Bu usul bolalarni o'qishga qiziqtiradi va ularning nutqi rivojlanishiga yordam beradi.

Shuningdek adibning "Kosa tagida nimkosa" kitobi bolalar orasida juda mashhur bo'lib, unda hayotiy voqealar kulgili tarzda tasvirlangan. Bu kitob o'zining hazil-mutoyiba, o'yinbop til va hayotiy voqealari bilan bolalar qalbiga yaqin. Shoir oddiy kundalik voqealarni kulgili shaklda tasvirlab, bolalarni o'ylashga, kuzatishga va xulosa chiqarishga undaydi. "Kosa tagida nimkosa" bolalar adabiyotida hazil-mutoyiba va o'yinbop tilni keng qo'llagan ilk to'plamlardan biridir. Shoir oddiy voqealarni bolalar dunyoqarashiga moslashtirib, ularda kuzatuvchanlik, tafakkur va estetik didni shakllantiradi. Kitob bolalar uchun tarbiyaviy qo'llanma bo'lib, unda tabiatni sevish, odob-axloqni qadrlash va ijodiy fikrlash g'oyalari singdirilgan.

Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga xos asosiy uslubi – quvnoq yumor, majoziy tasvir va xalqona sodda til. U asarlarini bolalar dunyosini yaxshi tushunib yozgan: gaplari oddiy va qisqa, tasvirlari jonli, voqealari tez rivojlanadi va qiziqarli. Adibning uslubida folklor unsurlari, jumladan, ertak, rivoyat, topishmoq kabilar bilan zamonaviy hayotiy voqealar uyg'unlashganini ko'ramiz. Masalan, Fozilova Odinaning tadqiqotida ta'kidlanishicha, Anvar Obidjon bolalar hikoyalarida "yengil yumor bilan yo'g'irilgan betakror tasvir uslubi"dan foydalangan holda o'zbek bolalar hikoyachiligini yangi bosqichga ko'targan. U hasharotlar, hayvonlar va narsalarni insonlashtirish jonlantirish orqali bolalarga tanish holatlarni kulgili shaklda tasvirlaydi. Bu usul bolalarda kulgi uyg'otish bilan birga, axloqiy saboqlarni oson qabul qilishga yordam beradi.

She'riyatda tabiat va vatanparvarlik tarbiyasi Anvar Obidjon she'riyatidan boshlab bolalar adabiyotiga kirdi. "Ona Yer" (1975), "Ey, yorug' dunyo", "Vatanjon", "Tinch kunlar" kabi to'plamlari ona tabiatga muhabbat va vatan tuyg'usini singdirishga qaratilgan.

Ona Yer, mehribon onam,
Seni asrab qolaylik,
Yashil kiyimingni yirtmaylik,
Suvlaringni to'kmaylik... [Anvar Obidjon]

Ona yer to'plamidagi ushbu parchada tabiat "Ona" obrazi sifatida gavdalanadi. She'r lirik, iliq va tarbiyaviy bo'lib, ekologik ongini shakllantiradi. Estetik jihatdan sodda bo'lsada, ammo chuqur his-tuyg'uga boy hisoblanadi. Anvar Obidjonning ijodida tabiat va inson munosabati alohida o'rin tutadi. Bu kitob o'zbek bolalar she'riyatida tabiatni badiiy tasvirlashning yangi bosqichini boshlab bergan asar sifatida e'tirof etiladi. "Ona Yer" kitobi Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo'shgan eng muhim hissalaridan biridir. Bu asar orqali shoir bolalarni tabiatni sevishga, uni asrashga, go'zallikni qadrlashga va ijodiy tasavvur bilan hayotga qarashga o'rgatadi. Kitob o'zbek bolalar adabiyotida ekologik va estetik tarbiyaning mustahkam poydevorini yaratgan bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Anvar Obidjon she'rlarida daraxt, gul, hasharot, qush kabi tabiat unsurlarijonli obraz sifatida gavdalanadi. Masalan, "Bulbulning cho'pchaklari", "G'alati maktublar", "Ajoyib xona" turkum she'rlarida hayvonlar va o'simliklar inson tillarida gaplashadi. Bu usul bolalarda tasavvur kuchini oshiradi va tabiatni asrash kerakligini o'rgatadi. "G'alati maktublar" turkumidan Kalish botinkaga yozgan xatida:

"Qadrdonim, seni ko'rib quvondim,
Lekin seni kiygan yigitlar juda qirchillama,
Choriq bobongni unutma, deb aytaman..." [Anvar Obidjon]

Bu she'rda poyabzallar insonga xos jonlantirilgan. Oddiy buyumlar orqali bolalarga "kelib chiqishni unutmaslik", "ota-bobolar an'anasini hurmat qilish" g'oyasi beriladi. Yumor va kinoya orqali tarbiya beriladi. She'ning qisqa, ritmik tuzilishi va xalqona til bolalarga oson yodlanishini ta'minlaydi. Bu – shoirning asosiy estetik yangiligi, ya'ni oddiy narsalarni g'ayrioddiy qilishdir.

"Kosa tagida nimkosa" bolalar adabiyotida hazil-mutoyiba va o'yinbop tilni keng qo'llagan ilk to'plamlardan biridir. Shoir oddiy voqealarni bolalar dunyoqarashiga moslashtirib, ularda kuzatuvchanlik, tafakkur va estetik didni shakllantiradi. Kitob bolalar uchun tarbiyaviy qo'llanma bo'lib, unda tabiatni sevish, odob-axloqni qadrlash va ijodiy fikrlash g'oyalari singdirilgan.

Nasrida ham "Oltiariq hangomalari", "Alamazon va Gulmat" kabi asarlarida folklor unsurlari, xalq ertaklari motivlari, real hayot voqealari uyg'unlashgan. "Meshpolvon" qahramoni orqali bolalar ongida jasorat, vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlar singdiriladi. "Oltin yurakli Avtobola" asaridagi Robot bola timsoli orqali bolalar tasavvuriga zamonaviy texnologiya va insoniy tuyg'ular haqida fikrlar uyg'onadi.

Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotida nafaqat she'riyat, balki hikoya va ertaklar orqali ham kata hissa qo'shgan. Uning hikoya va ertaklari bolalar dunyoqarashiga mos, hazil-mutoyiba va hayotiy voqealar bilan boyitilgan bo'lib, bolalar uchun muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shoir oddiy voqealarni bolalar uchun qiziqarli shaklda tasvirlab, ularda kuzatuvchanlik, tafakkur va odob-axloqni shakllantiradi.

Professor Safo Matchonovning fikricha, shoirning she'rlaridagi "majoziy yumoristik tasvir" bolalarning o'zlariga tanish holatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularda hayrat va qiziqish uyg'otadi [Matchonov 2024].

Anvar Obidjon nasrida yumor markaziy o'rinda turishi ham adib ijodining o'ziga xos jihatlaridan biridir. U to'g'ridan-to'g'ri "ma'ruzaviy" tarbiya bermaydi, balki kulgili voqealar orqali nuqsonlarni "masxara" qiladi.

Anvar Obidjonning "Olovjon va uning do'stlari" (1983) to'plami bolalar uchun yozilgan qissa va hikoyalardan iborat. Unda asosiy qahramonlar – hayvonlar va hasharotlar (qumursqalar, chumolilar va boshqalar). Muallif ular orqali bolalarga do'stlik, jasorat, aql va halollik kabi

fazilatlarni o'rgatadi. Asar bosh qahramoni Olovjon ismli bola va uning do'stlari turli sarguzashtlarga duch keladi.

Yoshgina, ko'zlaridan jasorat yog'ilib turgan Qumursqa dangal odimlaganicha taxt qarshisiga kelib, shohga ta'zim qildi.

– Zo'ravon Chumolilarning ta'zirini, mana, men beraman! – ishonch bilan so'z qotdi u.

– Kimsan o'zing? – taajjublanib so'radi shoh. – Buncha chiranmasang, zumrasha?

Bu zumrasha saroy oshpazining Temirtirnoq ismli yakka-yu yolg'iz o'g'li bo'lib, jangari va dovyurakligi uchun hamma uni Olovjon der edi.

Olovjon shohning kenja qizini bir ko'rishdayoq sevib qolgan, unga yetishish yo'lida jonini berishga ham shay edi. Bundan tashqari, qo'rs va surbet Chumolilarni u juda yomon ko'rar edi...

Olovjon o'z lashkarini hiyla va aql bilan boshqarib, kuchli dushmani deyarli jang qilmasdan mag'lub etadi. G'alabadan keyin esa u do'stlarining (kitoblarning) ahamiyatini ta'kidlaydi:

– Aqlli o'rtoqlarimdan, – deb javob qildi Olovjon.

– Men o'qigan kitoblarimdan juda ko'p narsalar o'rgandim, shu boisdan ularni haqiqiy do'stlarim deb bilaman. Do'stlarsiz esa, hech qanday yutuqqa erishib bo'lmaydi [Anvar Obidjon 1983; 96].

Anvar Obidjonning "Olovjon va uning do'stlari" asari bolalarga do'stlik va jasoratni o'rgatish uchun yozilgan. Unda asosiy qahramon Olovjon – jasur va aqlli qumursqa bola. U hayvonlar va hasharotlar orqali insoniy yetakchi va yaxshi xususiyatlarni ko'rsatadi. Hikoyada kuchli dushmani nafaqat kuch bilan, balki aql va do'stlar yordami bilan yengish mumkinligi aytiladi.

Muallif bolalarga kitoblarni haqiqiy do'st deb bilishni va o'qishning foydasini o'rgatadi. Asar sodda, quvnoq va kulgili til bilan yozilgan. Shuning uchun bolalar asarni oson tushunishadi.

Bu asar Anvar Obidjonning do'stlik mavzusidagi eng yaxshi namunalardan biri bo'lib, bolalarda yaxshi fazilatlar – jasorat, aql va chin do'stlikni shakllantirishga yordam beradi.

Anvar Obidjonning "Oltin yurakli Avtobola" (1986) asari o'zbek bolalar adabiyotida texnika taraqqiyoti va inson ma'naviyati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yorituvchi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Asarda robot bola (Avtobola) obrazi orqali muallif texnik taraqqiyotning inson hayotiga kirib borishi bilan birga paydo bo'ladigan ma'naviy-moliyaviy muammolarni ochib beradi. Robot bola – bu nafaqat texnik mukammallik timsoli, balki yaxshilik, halollik, mehr-oqibat va o'zgarishga qodirlik ramzi sifatida ko'rsatiladi. U insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan holda, atrof-muhitdagi yovuzlik, aldov va ma'naviy qashshoqlikka qarshi kurashadi [Anvar Obidjon 1986; 80].

Anvar Obidjonning "Masxaraboz bola" (1986) she'rlar to'plami va "Bahromning hikoyalari" (1980) asari bolalar adabiyotida hajviy yo'nalishning yorqin namunalari sifatida ajralib turadi. Muallif bu asarlarda hazil va kinoya qurollari orqali bolalar hayotidagi salbiy holatlarni kulgili, ammo tarbiyaviy ma'noda ochib beradi. Asarlarda hajviy unsurlar juda kuchli bo'lib, bolalarning mayda yolg'onlari, dangasaligi, o'zini oqlashga urinishlari, qo'rqqoligi, ovqat tanlashi va boshqa kichik nuqsonlari kulgili vaziyatlar, qahramonlarning o'zini-o'zi ochib tashlashi orqali ko'rsatiladi. "Masxaraboz bola" da shoir bolaning o'zini "masxaraboz" qilib ko'rsatishi, har bir ishni hazilga aylantirib, lekin oxirida o'z nuqsonlarini tan olishini yumor orqali ajoyib tasvirlaydi. "Bahromning hikoyalari" da esa yozuvchi ko'pincha o'g'li Bahrom nomidan bolaning kundalik sarguzashtlari, mayda hiyla-nayranglari va dangasalik epizodlari yengil quvnoq uslubda tasvirlanadi.

Bu kabi asarlar mutolaasi orqali bolalar o'zlariga xos kamchiliklarni kulgi orqali ko'rib, ulardan uyalish va tuzatish istagini his qilishadi. Anvar Obidjon asarlarining o'ziga xosligi ham shundaki, adib asarlaridagi hajvni ham tanqidni ham og'riq berish orqali emas, balki mehr, muhabbat shavqat bilan yetkaza olgan.



Anvar Obidjon o‘zbek bolalar adabiyotida fantastik yo‘nalishni sezilarli darajada boyitdi. “Dahshatli Meshpolvon” va “Alamazon va Gulmat hangomasi” (1992) asarlari buning yorqin namunasidir. Anvar Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon” (qissa-doston) asari bolalar va o‘smirlar uchun yozilgan sarguzashtli va hajviy asarlardan biri hisoblanadi. Asar birinchi marta turli nomlar bilan chiqqan bo‘lib, keyinchalik “Dahshatli Meshpolvon” nomi bilan mashhur bo‘ldi. 1995-yilda Melis Abzalov rejissorligida shu asar asosida xuddi shu nomdagi kinofilm ham suratga olingan. Bu asarlarda kichik qahramonlar Meshpolvon ulkan sarguzashtlarga kirishadi. Fantastika orqali bolalarda jasorat, aql va do‘stlikni qadrlash tuyg‘usi shakllantiriladi. “Dahshatli Meshpolvon” asari asosida, hatto, badiiy film ham suratga olingan. Bu asarlar bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish bilan birga yovuzlik ustidan yaxshilik g‘alabasini ko‘rsatadi.

Anvar Obidjonning “Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi”, “Pahlavonning o‘g‘irlanishi”, “Tushuntirish xati” kabi pyesalari bolalar teatrlarida muvaffaqiyatli sahnalashtirilgan. Bu asarlarda dialoglar orqali tarbiyaviy g‘oyalar yetkaziladi. Pulblitsistik uslubda yozilgan maqolalarida esa odob-axloq, oilaviy tarbiya va zamonaviy muammolar ko‘tarilgan. Anvar Obidjonning qissa va pyesalari bolalar adabiyotida hazil, fantaziya va tarbiyaviy g‘oyalarni uyg‘unlashtirgan asarlar sifatida alohida o‘rin tutadi. U o‘z asarlari orqali bolalarga oddiy ijtimoiy voqealarni ham kulgi ohangida yetkazib, ularga kulgi orqali odob-axloq, estetik did va teatr san‘atiga qiziqishni shakllantirishga uringan. Shoirning qissa va pyesalari bugungi kunda ham bolalar adabiyotida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangi avlod uchun ham tarbiyaviy manba bo‘lib qolmoqda.

Anvar Obidjon o‘zbek bolalar she‘riyatida o‘ziga xos yangiliklar yaratgan shoir sifatida alohida o‘rin egallaydi. U an‘anaviy bolalar she‘riyatidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarbiyaviy uslubdan voz kechib, yumor, majoziy tasvir, folklor unsurlari va bolalar psixologiyasiga mos sodda til orqali chuqur mazmunli she‘rlarni yaratdi. Uning she‘riyatidagi asosiy yangilik – tabiat, Vatan, Ona va do‘stlik mavzularini bolalar dunyosiga yaqinlashtirish, ularni jonli, quvnoq va o‘ynoqi shaklda ifodalashdir. Anvar Obidjon tabiatni bolalar she‘riyatida oddiy tasvir emas, balki jonli, gapiruvchi va harakatdagi obraz sifatida ko‘rsatdi. U hasharotlar, hayvonlar, o‘simlik va fasllarni insonga xos jonlantirib bolalarda tabiatga muhabbat va uni asrash tuyg‘usini uyg‘otdi. Adibning “Bulbulning cho‘pchaklari”, “Ajoyib xona”, “Osmondan tushgan sozanda” turkum she‘rlarida chigirtka, bulbul, gul, daraxt kabi tabiat unsurlarining hayoti bolalar hayoti kabi jonlantirilib, o‘zaro suhbatlashishi, qo‘shiq aytib kuylashi kabi hodisalari bolalar tasavvurini rivojlantirib, ekologik tarbiyani oson singdiradi. “G‘alati maktublar” turkumida poyabzal turlari kalish, botinka, shippak kabilar bir-biriga xat yozadi. Bu usul bolalar tasavvurida qiziqarli va quvnoq olamni, tabiat va atrof-muhitni o‘ziga yaqin his qilishga yordam beradi [Anvar Obidjon 2017; 128].

Anvar Obidjon Vatan mavzusini bolalar she‘riyatida mavhum va tantanali uslubda emas, balki konkret, iliq va ona tabiat bilan chambarchas bog‘liq holda ifodalagan. U Vatan tuyg‘usini bolalarga yaqin, tushunarli va samimiy shaklda ochib bergan. Uning bu yo‘nalishdagi eng muhim asari “Ona Yer” (1975) she‘rlar to‘plamidir. To‘plamda Vatan katta mehribon ona, “Ona Yer” esa bolalarni bag‘riga olgan, ularni asrab-avaylaydigan tabiat timsoli sifatida gavdalanadi. Xususan, “Vatanjon”, “Tinch kunlar”, “Ey, yorug‘ dunyo” kabi she‘rlarida muallif Vatan tuyg‘usini tabiat go‘zalligi, tinch kunlar va bolalar baxti orqali ochadi. Vatan bu yerda baland tog‘lar, yashil dalalar, oqar suvlar va bolalarning quvnoq ovozi bilan birlashgan iliq obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Anvar Obidjon kattalar she‘riyatida odatda epik va tantanali uslubda ifodalanadigan Vatan mavzusini bolalar uchun sodda, lirik va his-tuyg‘uga boy shaklda bergan. Bu yondashuv yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini majburiy targ‘ibot orqali emas, balki tabiiy, chuqur va yurakdan shakllantirishga xizmat qilgan. Natijada, bolalar Vatan haqidagi tushunchani qo‘rquv yoki tantana emas, balki mehr, minnatdorlik va tabiatga bo‘lgan muhabbat orqali o‘zlashtiradilar.

Anvar Obidjon “Ona Yer” to‘plami va unga kirgan she‘rlarida Vatan mavzusini bolalar psixologiyasiga mos ravishda yangicha talqin etib, o‘zbek bolalar she‘riyatida muhim iz qoldirdi. Uning bu yondashuvi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan.

Anvar Obidjon she'rlarida "Ona" obrazi ikki ma'noda uchraydi: birinchisi – bolaning o'z onasi, ikkinchisi – Ona Vatani va Ona Tabiat. Shoir ona muhabbatini bolalarga tushunarli qilib, kundalik hayotdan olingan oddiy voqealar orqali tasvirlaydi. She'rlarida onaning mehri, g'amxo'rliги va qayg'usi bolaning oddiy kunlarida – ovqat yeyishda, o'ynashda, kasal bo'lganda ko'rinadi. Tabiatni "Ona Yer" deb atash orqali ona tuyg'usini kengaytiradi va bolalarda tabiatga ham hurmat va sevgi uyg'otadi. U ona mavzusini haddan tashqari chuqur his-tuyg'uli ham qilmaydi balki, odda bolalar tili va yumor yordamida yozadi. Bu bolalarga ona muhabbatini chuqurroq his qilishga va tushunishga yordam beradi.

Do'stlik mavzusi esa Anvar Obidjon she'riyatining eng yorqin qismlaridan biri. Shoir do'stlikni so'z bilan emas, balki harakat va voqealar orqali ko'rsatadi. "Siz eshitmagan qo'shiqlar", "Chigirtkalar qo'shig'i", "Sigir qo'shig'i" kabi she'rlarida hayvonlar va hasharotlar bolalarning do'stlari sifatida tasvirlanadi. Bolalar o'rtasidagi do'stlikni esa o'yinlar, birgalikdagi sarguzashtlar va kulgili voqealar orqali ochib beradi. Do'stlikni mavhum gaplar bilan emas, balki sodda, quvnoq va kulgili holatlar orqali beradi. Bu bolalarga do'stlikning haqiqiy ma'nosi – bir-biriga yordam berish, birga bo'lish va sadoqatni osonroq anglashga yordam beradi.

Anvar Obidjon jami 25 ga yaqin she'riy va nasriy to'plamlarini chop ettirgan. Uning ijodi serqirra bo'lib, she'riyat, nasr, dramaturgiya va publitsistika janrlarini o'zida mujassam etgan. Adibning asosiy xizmatlaridan biri bolalar adabiyotini boyitish, uni ma'naviy tarbiya vositasiga aylantirish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Anvar Obidjonning bolalar adabiyotidagi o'rni shundaki, u bolalar uchun yozilgan asarlarni faqatgina zavqli mutolaa uchun emas, balki hayotiy saboq, tarbiyaviy maktab uchun bir manba sifatida yoritdi. Uning ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki yangi avlod uchun ham ruhiy va ma'naviy manba bo'lib qolmoqda. Anvar Obidjonni o'zbek bolalar adabiyotida yangilanish yaratgan, hazil va tarbiyani uyg'unlashtirgan ijodkor sifatida e'tirof etish mumkin. Uning asarlari bolalar qalbida quvonch, mehr va tafakkur uyg'otib, ularni hayotga ijodiy va estetik nigoҳ bilan qarashga o'rgatadi. Shu bois, Anvar Obidjonning asarlari nafaqat bolalar adabiyotining, balki butun o'zbek adabiy jarayonining muhim qismi sifatida qadrlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroqulova X. A. Obidjon ijodiga chizgilar. – O'zbek adabiyoti va san'ati, – № 3. B. 2005.
2. Minavvarova B. Anvar Obidjon asarlarinig bolalar adabiyotidagi o'rni. – O'zbek adabiyoti va san'ati, – №4, 2005.
3. Nazarov B. Anvar Obidjon she'rlarida poetik go'zallik.
4. Ibrohimova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
5. Mirzaev T. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: Fan, 1981.
6. Rasulov Sh. Bolalar adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2015.
7. Karimov N. "Anvar Obidjon ijodida bolalar folklori elementlari". O'zbek adabiyoti va san'ati, – №3, 2005.
8. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Anvar Obidjon." Toshkent: OME, 2001.
9. Anvar Obidjon. Ona yer. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – 120 b.
10. Anvar Obidjon. O'g'irlangan pahlavon. – Toshkent: Cho'lpon, 2006. – 136 b.
11. Matchonov S. Badiiy ijodda individuallik motivatsiyasi // Ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024.
12. Anvar Obidjon. Olovjon va uning do'stlari. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1983. – 96 b.
13. Anvar Obidjon. Oltin yurakli Avtobola. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986. – 80 b.
14. Anvar Obidjon. G'alati maktublar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 128 b.